ISSN 3060-5091 (Online)
Farg‘ona metodika maktabi – Ферганская методическая школа – Fergana methodical school
2026-yil 6-son.

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.24166048

Malaka oshirish jarayonida kognitiv kompetentlikni rivojlantirishda yumshoq ko‘nikmalarning o‘rni

Umirbekova Barchin Abdurasulovna –
Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti
Email: umirbekova.barchin@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada oliy ta’lim o‘qituvchilarining malaka oshirish jarayonida yumshoq ko‘nikmalar (soft skills) va kognitiv kompetentlik o‘rtasidagi bog‘liqlik ilmiy adabiyotlar sharhi va O‘zbekistonda malaka oshirishga oid me’yoriy hujjatlar asosida ko‘rib chiqiladi. Kattalar ta’limi nazariyalari va kasbiy rivojlanish tadqiqotlari solishtirilganda muloqot, hamkorlik, o‘z-o‘zini boshqarish va refleksiya tinglovchining kognitiv faoliyatini qo‘llab-quvvatlashi mumkinligi, metakognitsiya esa bu bog‘lanishda muhim vositachi bo‘lishi ehtimoli ko‘rinadi. Sharh asosida yumshoq ko‘nikmalarning ta’sir mexanizmlarini ifodalovchi va ularni uzluksiz malaka oshirishning amaldagi shakllariga moslashtirishni nazarda tutuvchi dastlabki konseptual model taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *yumshoq ko‘nikmalar, kognitiv kompetentlik, malaka oshirish, oliy ta’lim, kattalar ta’limi, refleksiya, metakognitsiya.*

Роль гибких навыков в развитии когнитивной компетентности в процессе повышения квалификации

Аннотация. *В статье на основе обзора научной литературы и нормативных документов, регулирующих повышение квалификации в Узбекистане, рассматривается взаимосвязь гибких навыков (soft skills) и когнитивной компетентности преподавателей высших учебных заведений в процессе повышения квалификации. Сопоставление теорий образования взрослых и исследований профессионального развития позволяет предположить, что коммуникативные навыки, сотрудничество, самоорганизация и рефлексия могут способствовать активизации когнитивной деятельности слушателей, а метакогниция, вероятно, выступает важным посредником в данной взаимосвязи. На основе проведённого обзора предложена предварительная концептуальная модель, отражающая механизмы влияния гибких навыков и предусматривающая их адаптацию к действующим формам непрерывного повышения квалификации.*

Ключевые слова: *гибкие навыки, когнитивная компетентность, повышение квалификации, высшее образование, образование взрослых, рефлексия, метакогниция.*

The role of soft skills in developing cognitive competence during professional development

Annotation. *The article examines the possible relationship between soft skills and cognitive competence in the professional development of higher education instructors in Uzbekistan, drawing on a literature review and the national regulatory documents. The reviewed sources suggest that communication, collaboration, self-regulation and reflection may support participants' cognitive activity, with metacognition as a likely mediating mechanism. A preliminary conceptual model is proposed that links these skills to the existing forms of continuous professional development. The model has not been empirically tested.*

Keywords: *soft skills, cognitive competence, professional development, higher education, adult learning, reflection, metacognition.*

KIRISH

Oliy ta'lim o‘qituvchisi uchun malaka oshirish kursi ko‘pincha fan mazmunini yangilash yoki yangi texnologiyani o‘rgatish bilan bog‘lanadi. Tinglovchi kursdan nimani olib ketishi esa berilgan ma'lumotdan tashqari, uni qanday qabul qilishiga, hamkasblari bilan qanday muhokama qilishiga va o‘z tajribasini qanchalik tanqidiy ko‘rib chiqa olishiga ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu holat kognitiv kompetentlik, ya'ni axborotni tahlil qilish, xulosa chiqarish va bilimni yangi vaziyatda qo‘llash qobiliyati yumshoq ko‘nikmalar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. OECD "Ta'lim 2030" loyihasida kognitiv, ijtimoiy va emotsional ko‘nikmalarning uyg‘un rivojiga e'tibor qaratgan [12], Xekman va Kauts noko‘gnitiv xususiyatlar hayotiy natijalarga kognitiv testlar o‘lchaydigan ko‘rsatkichlar kabi ta'sir qilishi mumkinligini yozgan [7], Vigotskiy esa bilish jarayonining muloqot orqali shakllanishini ta'kidlagan [18].

O‘zbekistonda oliy ta'lim pedagoglari uchun uzluksiz malaka oshirish tizimi 2019-yil 27-avgustdagi PF-5789-son Farmon bilan joriy etilgan, Farmon preambulasida amaldagi tartib samarasi past ekani va kasbiy kompetentlikni doimiy rivojlantirish mexanizmlarini qo‘llash zarurligi qayd etilgan [15]. Tinglovchilar kattalar, o‘z kasbiy tajribasiga ega mutaxassislardir: Knowlz kattalarning o‘rganishida o‘z-o‘zini boshqarish va tajribaga tayanish muhim ekanini ta'kidlagan [9]. Shu sababli bunday auditoriyada o‘qitish natijasi muloqot, hamkorlik va o‘z fikrini qayta ko‘rib chiqa olish kabi ko‘nikmalarga ham bog‘liq bo‘lishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

"Ta'lim to‘g‘risida"gi Qonunga (2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son) ko‘ra kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta'lim turlaridan biridir [13]. PF-5789-son Farmonga muvofiq pedagoglarning uzluksiz malaka oshirishi mustaqil, muqobil va bevosita o‘qish shakllarini o‘z ichiga oladi, pedagoglarga kasbiy faoliyati natijalaridan kelib chiqib shakl tanlash imkoniyati beriladi, 288 soatlik dasturda 144 soat mustaqil, 144 soat bevosita o‘qishga ajratilgan.

Kolb tajribaviy o‘rganish siklini [10], Shyon amaliyotchining refleksiyasini], Mezirow esa tanqidiy refleksiya kattalarning qarashlarini o‘zgartirishi mumkinligini tavsiflagan [11]. Garet va hamkasblari hamda Desimone samarali kasbiy rivojlanishning belgilari sifatida faol o‘rganish, izchillik, davomiylik va jamoaviy ishtirokni ajratgan [6, 3]. Durlak va hamkasblarining 213 ta maktab dasturini qamrab olgan meta-tahlilida ijtimoiy-emotsional o‘qitish o‘zlashtirishni taxminan 11 foiz punktga oshirgani qayd etilgan [4]. Kautz va hamkasblari kognitiv va noko‘gnitiv ko‘nikmalar bir-birini kuchaytirishi va ularni o‘qitish orqali rivojlantirish mumkinligini yozgan [8]. Metakognitsiya tushunchasini Flavell kiritgan

[5], Zimmerman esa o‘z-o‘zini boshqarib o‘rganishning reja, kuzatish va o‘zini baholash bosqichlarini ajratgan. O‘zbekistonlik olimlar orasida U.Sh.Begimqulov pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyotini o‘rgangan, bu mavzuda doktorlik dissertatsiyasi [1] va monografiya [2] chop etgan. Uning ishlari asosan pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan, shuning uchun ular malaka oshirish masalasiga kasbiy tayyorgarlik muhitini texnologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash nuqtai nazaridan aloqador deb qaralishi mumkin. Tadqiqot tavsifiy-tahliliy sharh usulida olib borildi. Me’yoriy hujjatlar Lex.uz bazasi orqali, ilmiy manbalar (Scopus, Web of Science, Google Scholar, mahalliy jurnallar)bo‘yicha “soft skills”, “yumshoq ko‘nikmalar”, “professional development”, “malaka oshirish”, “refleksiya” so‘zlari qidirildi. Tanlash mezoni: hakamlik jarayonidan o‘tgan nashr yoki rasmiy hujjat bo‘lishi hamda yumshoq va kognitiv ko‘nikmalar yoki kasbiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rib chiqishi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Sharh materiallari asosida yumshoq ko‘nikmalarning kognitiv jarayonlarga mumkin bo‘lgan ta’siri va ularni malaka oshirish shakllariga singdirish yo‘llari 1-jadvalda dastlabki konseptual model sifatida berilgan.

1-jadval.

Yumshoq ko‘nikmalarning mumkin bo‘lgan ta’sir mexanizmi va malaka oshirish shakllariga singdirish modeli

Ko‘nikma	Ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan kognitiv jarayon	Mashg‘ulot shakli	Malaka oshirish shakli
Muloqot	Fikrni asoslash, chuqur tushunish	Rollar bilan guruh muhokamasi	Bevosita o‘qish
Hamkorlik	Boshqa nuqtai nazarlarni solishtirish	Hamkasblar bilan keys tahlili	Bevosita; muqobil
O‘z-o‘zini boshqarish	Metakognitiv nazorat	Shaxsiy rivojlanish rejasi	Mustaqil
Refleksiya	Tajribani qayta ko‘rib chiqish	Refleksiv kundalik, portfolio	Mustaqil; bevosita
Tanqidiy munosabat	Dalilni baholash	Dalilli munozara, o‘zaro tahlil	Bevosita; muqobil

Sharh materiallari malaka oshirish tinglovchilari uchun yumshoq ko‘nikmalar kognitiv kompetentlik bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi, ammo bu bog‘lanish tinglovchilar ishtirokida alohida o‘lchanmagan. Shu sababli jadvalda keltirilgan ta’sir mexanizmlari empirik jihatdan tasdiqlangan natijalar emas, balki yumshoq ko‘nikmalar va kognitiv faoliyat o‘rtasidagi ehtimoliy bog‘liqlikni tushuntirishga qaratilgan nazariy-metodik takliflar sifatida qaraladi. Tajribali o‘qituvchi yangi g‘oyani ehtimol avval o‘z tajribasi bilan solishtiradi, shuning uchun muhokama muhiti va o‘z qarashini qayta ko‘rib chiqishga tayyorlik bilimning qanchalik chuqur o‘zlashtirilishiga ta’sir qilishi mumkin. Bu Mezirow va Vigotskiy qarashlariga mos keladi. Bunda muloqot va hamkorlik bilimlarni birgalikda muhokama qilish, turli nuqtayi nazarlarni qiyoslash va xulosalarni asoslashga, o‘z-o‘zini boshqarish hamda refleksiya esa tinglovchining fikrlash jarayonini kuzatish, o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarni aniqlash va o‘quv strategiyalarini qayta ko‘rib chiqishga yordam berishi mumkin. Mazkur jarayonlarda metakognitsiya yumshoq ko‘nikmalar bilan

kognitiv kompetentlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni izohlovchi vositachi omil sifatida ahamiyat kasb etadi.

Me’yoriy nuqtayi nazardan PF-5789 tinglovchiga shakl tanlash imkonini beradi, bu o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmasi uchun qulay asos bo‘lishi mumkin. 144 soatlik mustaqil qism refleksiv kundalik va portfolio uchun, bevosita qism esa rollar bilan muhokama va o‘zaro tahlil uchun mos kelishi mumkin. Ushbu faoliyat turlarini o‘zaro bog‘liq holda tashkil etish tinglovchilarning mustaqil o‘rganish jarayonida shakllangan fikr va xulosalarini jamoaviy muhokamada asoslash, olingan tavsiyalarni tahlil qilish hamda kasbiy tajribasiga tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Taklif etilayotgan modelning amaliy samaradorligini aniqlash uchun tinglovchilarning refleksiv yozuvlari, keys-topshiriqlar bo‘yicha qarorlari va dalillarga asoslangan xulosalaridagi o‘zgarishlarni tajriba-sinov jarayonida baholash maqsadga muvofiq.

XULOSA

O‘tkazilgan nazariy tahlil natijalari yumshoq ko‘nikmalar oliy ta’lim professor-o‘qituvchilarining malaka oshirish jarayonida kognitiv kompetentligini rivojlantirish bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lishi mumkinligini, metakognitsiya esa mazkur bog‘liqlikni ta’minlovchi muhim vositachi omil sifatida namoyon bo‘lishi ehtimolini ko‘rsatdi. Xususan, muloqot, hamkorlik, o‘z-o‘zini boshqarish va refleksiya ko‘nikmalari tinglovchilarning axborotni anglash, tahlil qilish, bilimlarni qayta ishlash hamda kasbiy vaziyatlarda asosli qaror qabul qilish faoliyatini qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, malaka oshirish dasturlarining mustaqil ta’lim va bevosita o‘quv mashg‘ulotlariga rejalashtirilgan muhokamalar, refleksiv topshiriqlar, o‘zaro tahlil va qayta aloqa elementlarini integratsiyalash hamda ularning kognitiv kompetentlikni rivojlantirishdagi samaradorligini amaliy jihatdan sinovdan o‘tkazish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2007.
2. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari: monografiya. – Toshkent: Fan. – 160 b. – 2007.
3. Desimone L.M. Improving impact studies of teachers’ professional development: Toward better conceptualizations and measures // Educational Researcher. – Vol. 38, No. 3. – P. 181–199. – 2009.
4. Durlak J.A., Weissberg R.P., Dymnicki A.B., Taylor R.D., Schellinger K.B. The impact of enhancing students’ social and emotional learning: A meta-analysis of school-based universal interventions // Child Development. – Vol. 82, No. 1. – P. 405–432. – 2011.
5. Garet M.S., Porter A.C., Desimone L., Birman B.F., Yoon K.S. What makes professional development effective? Results from a national sample of teachers // American Educational Research Journal. – Vol. 38, No. 4. – P. 915–945. – 2001.
6. Heckman J.J., Kautz T. Hard evidence on soft skills // Labour Economics. – Vol. 19, No. 4. – P. 451–464. – 2012.
7. Kautz T., Heckman J.J., Diris R., ter Weel B., Borghans L. Fostering and measuring skills: Improving cognitive and non-cognitive skills to promote lifetime success // OECD Education Working Papers. – No. 110. – OECD Publishing. – 2014.
8. Mezirow J. Transformative dimensions of adult learning. – Jossey-Bass. – 1991.
9. Zimmerman B.J. Becoming a self-regulated learner: An overview // Theory Into Practice. – Vol. 41, No. 2. – P. 64–70. – 2002.